G'afurov Zohidjon	
YOSHLAR STARTAPLARINI VENCHUR FONDRLARI ORQALI QO'LLAB-QUVVATLASH IMKONIYATLARI.....	508
Valiev Umid Gulamovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" IMKONIYATLARIDAN FOYDALANIB O'ZBEKISTONDA IJTIMOY - IQTIDOY MUAMMAOLARNI XAL ETISH	511
Karimov Nodirbek	



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA OZIQ-OVQAT, XAVFSIZLIK VA XO'JALIK XIZMATLARINI AUTSORSING ASOSIDA TASHKIL ETISHNING BUDJETGA TA'SIRI.....	514
Xamidov Anis Choriyevich	
THE ROLE OF AMINO ACIDS IN THE LIFE OF ATHLETES.....	518
Yoldasheva Roila Jumaevna	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНСТИТУТОВ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРЦИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....	525
Солиев Абдумаджид Джабборович	
O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH HOLATI TAHLILI	529
Holov Sherali	
BANK TIZIMIDA KREDIT RISKLARINI KAMAYTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	532
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
BOZOR IQTISODIYOTIDA DAROMADLAR TAQSIMOTI VA TENGSIZLIK MUAMMOSI	536
Fayziyeva Dilso'z Bahodirovna	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA GAROVSIZ MIKROKREDITLARNI QAYTA MOLIVALASHTIRISH TIZIMINING AHAMIYATI	540
Annaklichev Sahi Saparmuhamedovich	
KORPORATIV TUZILMALARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH.....	543
Jummatova Gulzar Maxmud qizi	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH	548
Achilov Ilmurad Neymatovich	
TOVAR-XOMASHYO BIRJALARIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	553
Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich	
THE EVOLUTION OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, DRIVERS, AND FUTURE PROSPECTS.....	555
Madina Abdujabborova, Nozima Zufarova Professor	
TURIZM SOHASIDA MEHMONXONA XIZMATLARINING MAZMUNI VA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI	559
Mir-Jafarova Aziza Javoxirovna	
CHAKANA SAVDO KORXONASIDA BREND STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	563
Ro'zimatov Shohboz Hamdambek o'g'li	
MINTAQA TURIZM POTENTIALI TUSHUNCHASINING XUSUSIYATLARIGA OID ILMIY NAZARIY YONDASHUVLAR.....	568
Madaminova Sanabar Askarovna	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISH USULLARI.....	571
Jabborov Baxriddin Rashidovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIVALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	574
S.Xalikov	
INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	577
U.N.Muxammadiyev	
MIJOZ VA BANK MUNOSABATLARINI MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	579
Temirova Sevara Baxodirovna	
DAVLAT BANDLIK SIYOSATINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	585
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MAKROIQTISODIY NOMUTANOSIBLIK LARINING TIZIMLI TA'SIRI	588
Uralov Shavkat Maxramovich	
HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING TARIXIY VA ZAMONAVIY ASPEKTLARI	592
G'ulomov Boburjon G'ogurjon o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA 2017 – 2024-YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINING TARKIBIY VA DINAMIK TAHLILI.....	595
Sultanov Anvar Abdullaevich	



MAMLAKATIMIZDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I VA UNI PROGNOZ QILISH USULLARI	598
Sobirova Nigora Baxtiyor qizi	
ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT-EKOTIZIMIGA TA'SIRI	602
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
NEFT-GAZ TARMOG'I KORXONALARIDA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH SAMARADORLIGI.....	606
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	609
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
TIJORAT BANKLARIDA "BIG DATA" TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA MIJOZLAR BAZASINI SEGMENTLASH VA DAROMADLILIKNI OSHIRISH	612
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDAGI O'RNI: HOLAT VA TENDENSIYALAR	614
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ УРОВНЯ ЗРЕЛОСТИ ESG-ПРАКТИК НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ.....	617
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
FINTECH ASOSIDA ISLOMIY MOLIIA MAHSULOTLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	619
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
"YASHIL" INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISHNING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	621
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
CULTURAL DIMENSIONS AND ORGANIZATIONAL TRANSFORMATION: EVIDENCE FROM SAUDI ARABIA AND UZBEKISTAN.....	624
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
SURXONDARYO VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY IMKONIYATLARINI KUCHAYTIRISH VA XARAJATLARNI BARQAROR MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	629
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
SOLIQ TIZIMIDA FOYDALANUVCHI XATOLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	632
Xatamov Alisher Farxadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH ORQALI RAG'BATLANTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH.....	635
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TALABALAR INNOVATION RIVOJLANISH MARKAZLARI FUNKSIONAL SALOHİYATINI KENGAYTIRISH YO'LLARI	639
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
DAVLAT XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	644
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI AMALGA OSHIRISH TAHLILI.....	648
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
SAMARQAND VILOYATIDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	650
Aktamov Olimjon Abdug'ani o'g'li	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUVNI QO'LLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	657
Hakimov Nodir Nazarovich	
DAVLAT XARIDLARINI NAZORAT QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	660
Hakimov Nodir Nazarovich	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	663
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
O'ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RESURS VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MAKROIQTISODIY YO'NALISHLARI.....	666
Suyarov Shahzod Salim o'g'li	
INVESTITSIYON MUHITNI BOSHQARISHNING DOLZARB MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI.....	669
To'rayev Jasurali To'rayevich	



ВЛИЯНИЕ AML/КУС ПРОЦЕДУР НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОНЛАЙН ТРАНСГРАНИЧНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ.....	672
Садыков Азиз Миршарапович	
TOWARDS A LOW-CARBON FUTURE: RENEWABLE ENERGY AND EFFICIENCY POLICIES IN UZBEKISTAN.....	676
Khakimdjanoval Surayyo Khabibullayevna	
ENERGY SECURITY UNDER GLOBAL CRISES: GEOLOGICAL RISKS AND RENEWABLE PATHWAYS IN OIL AND GAS SYSTEMS.....	679
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI BAHOLASHNING DOLZARB MASALALARI	681
Islamov Anvar Ashirqulovich	
RAQAMLI TURIZMDA ISTE'MOLCHILARNING XATTI-HARAKATLARI BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	684
Jumayev Bobomurod Nurmaxmat o'g'li	
ELEKTRON XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA SMART SHARTNOMALARNI QO'LLASH.....	687
Otaboyev Nodirbek Oybek o'g'li	
IMPROVING THE ACCOUNTING FOR ENVIRONMENTAL LIABILITIES AND PROVISIONS IN THE BUILDING MATERIALS INDUSTRY	690
Komiljon Abdullajonovich Mirzaev	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI REJALASHTIRISH VA USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	693
Axmetova S. S.	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH	697
Latipov Jahongir Shavkatovich	
RAQAMLI INFRATUZILMA VA API INTEGRATSIYASI ORQALI BANKLARARO RAQOBATNI KUCHAYTIRISH	701
Karimov Odiljon Boqiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	704
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
TA'LIM MUASSASASI RAHBARLARINING MA'NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH.....	708
Nuriyeva Umida Buribayevna	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODELI VA ILMIY YONDASHUVLARI	711
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	
AHOLIGA SIFATLI IJTIMOY XIZMAT VA YORDAM KO'RSATISH TIZIMI	715
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ВЫСОКОЙ ВОЛАТИЛЬНОСТИ ФОНДОВОГО РЫНКА.....	718
Каримова Нуржахон Олим кизи	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	723
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
KICHIK BIZNESDA INTERNETMARKETING TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARALI MODELI VA BOSQICHLI ALGORITMI	726
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	730
Almanov Xurshid Ismoilovich	



KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Almanov Xurshid Ismoilovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi korxonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini yoritilgan. Investitsiya loyihalarini o'z mablag'lari, bank kreditlari va loyihaviy moliyalashtirish asosida amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Alohida e'tibor qurilish loyihalarini moliyalashtirishda eskrou-hisobvaraqlaridan foydalanish, qurilish ishlarining kamida 30 foizini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirish hamda keyingi bosqichda bankning loyihaviy kreditini jalb etish amaliyotiga qaratilgan. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihasi, korxona, kapital qo'yilmalar, loyihaviy moliyalashtirish, bank krediti, o'z mablag'lari, eskrou-hisobvarag'i, pul oqimlari, investitsiya samaradorligi.

Abstract. This thesis examines the organizational, economic, and financial aspects of implementing investment projects in enterprises. The mechanisms for implementing investment projects using enterprises' own funds, bank loans, and project financing are analyzed. Particular attention is paid to the use of escrow accounts in financing construction projects, the implementation of at least 30 percent of construction works using the developer's own funds, and the subsequent attraction of project financing loans from banks. Proposals are developed to improve the efficiency of investment project implementation.

Keywords: investment project, enterprise, capital investments, project financing, bank loan, own funds, escrow account, cash flows, investment efficiency.

Аннотация. В тезисе рассматриваются организационно-экономические и финансовые аспекты реализации инвестиционных проектов на предприятиях. Проанализированы механизмы реализации инвестиционных проектов за счёт собственных средств, банковских кредитов и проектного финансирования. Особое внимание уделено использованию эскроу-счетов при финансировании строительных проектов, выполнению не менее 30 процентов строительных работ за счёт собственных средств застройщика, а также привлечению банковского кредита на основе проектного финансирования на последующем этапе. Разработаны предложения по повышению эффективности реализации инвестиционных проектов.

Ключевые слова: инвестиционный проект, предприятие, капитальные вложения, проектное финансирование, банковский кредит, собственные средства, эскроу-счёт, денежные потоки, эффективность инвестиций.

KIRISH

Korxonalarning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish ko'p jihatdan investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirishga bog'liq [4]. Investitsiya loyihasi faqat moliyaviy mablag'larni kapital aktivlarga yo'naltirish jarayoni emas, balki loyihani rejalashtirish, moliyalashtirish, qurilish va montaj ishlarini tashkil etish, xarajatlarni nazorat qilish, obyektning foydalanishga topshirish hamda kelgusidagi pul oqimlarini shakllantirishni qamrab oluvchi kompleks iqtisodiy jarayondir.

Amaliyotda investitsiya loyihalari turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Taqdim etilgan materialda investitsiya loyihasini investor topshirig'iga ko'ra amalga oshirish, korxonaning o'z ehtiyojlari uchun obyekt qurish va sotish uchun obyekt qurish kabi asosiy yo'nalishlar ajratilgan.



1-jadval

Korxonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning asosiy shakllari¹

Amalga oshirish shakli	Iqtisodiy mazmuni	Asosiy moliyaviy xususiyati
Investor topshirig'i asosida	Buyurtmachi investor nomidan loyiha, pudratchi va yetkazib beruvchilar faoliyatini tashkil etadi	Xarajatlar investor tomonidan qoplanadi, buyurtmachi xizmat haqi oladi
O'z ehtiyojlari uchun	Korxona ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyati uchun yangi obyekt yaratadi	Xarajatlar kapitalizatsiya qilinib, obyekt asosiy vosita sifatida tan olinadi
Sotish maqsadida	Obyekt keyinchalik realizatsiya qilish uchun yaratiladi	Xarajatlar ishlab chiqarish tannarxida shakllantiriladi
Loyihaviy moliyalashtirish asosida	Loyiha o'z mablag'lari, bank krediti va kelgusidagi maqsadli pul oqimlari hisobidan moliyalashtiriladi	Moliyalashtirish loyiha bosqichlari va pul oqimlari bilan bog'lanadi

Korxona o'z ehtiyojlari uchun investitsiya obyektini xo'jalik yoki pudrat usulida qurishi mumkin. Xo'jalik usulida korxona buyurtmachi va pudratchi funksiyalarini o'zi bajaradi, pudrat usulida esa maxsus qurilish tashkilotlari jalb qilinadi. Qurilish obyektining qiymati haqiqiy qurilish xarajatlari va uni foydalanishga tayyorlash bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlardan shakllanadi [2].

Shuningdek, qurilish uchun maxsus jalb qilingan kreditlar bo'yicha qurilish davrida hisoblangan foizlarning obyektning boshlang'ich qiymatiga kiritilishi kapital qo'yimlarni to'liq baholash imkonini beradi [3]. Bu holat investitsiya loyihasi qiymatini aniqlashda faqat qurilish-montaj xarajatlari emas, balki moliyalashtirish qiymatini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Loyihaviy moliyalashtirishning amaliy mexanizmi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish amaliyotida eng muhim masalalardan biri korxonaning o'z mablag'lari bilan tashqi moliyalashtirish o'rtasidagi optimal nisbatni aniqlashdir. Korxona loyihani to'liq o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirsa, uning investitsiya imkoniyatlari cheklanadi. Aksincha, loyihaning boshlang'ich bosqichidanoq yuqori miqdorda kredit jalb etilishi moliyaviy xavfni va qarz yukini oshirishi mumkin.

Shu jihatdan loyihaviy moliyalashtirish asosidagi yangi mexanizm alohida ahamiyatga ega. Taqdim etilgan tartibga ko'ra, ulushli qurilish obyektlari quruvchining o'z mablag'lari, tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirish asosidagi kreditlari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

Bunda quruvchi bank kreditini olishdan oldin qurilish-montaj ishlarining dastlabki bosqichini, ya'ni umumiy ishlar hajmining kamida 30 foizini o'z mablag'lari hisobidan bajarishi talab etiladi [1]. Shundan keyin tijorat banki loyihaning keyingi bosqichlarini moliyalashtirish uchun kredit ajratadi.

2-jadval

Investitsiya loyahasini loyihaviy moliyalashtirishning bosqichma-bosqich mexanizmi²

Bosqich	Moliyalashtirish manbai / harakat	Iqtisodiy mazmuni
1-bosqich	Quruvchining o'z mablag'lari	Qurilish-montaj ishlarining kamida 30 foizi bajariladi
2-bosqich	Tijorat bankining loyihaviy krediti	Loyiha keyingi bosqichlarini moliyalashtirish uchun bank resurslari jalb qilinadi
3-bosqich	Eskrou-hisobvarag'i	Xaridorlar yoki ulushdorlarning mablag'lari maxsus bank hisobvarag'ida jamlanadi
4-bosqich	Loyiha qurilishining yakunlanishi	Qurilish-montaj ishlari tugallanib, obyekt foydalanishga topshiriladi
5-bosqich	Eskrou mablag'lari hisobidan kreditni so'ndirish	Bank tomonidan berilgan loyiha krediti qoplanadi
6-bosqich	Qolgan mablag'larni quruvchiga o'tkazish	Kredit qoplangandan keyingi qoldiq quruvchiga beriladi

Ushbu mexanizmni qisqacha quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

30% o'z mablag'lari → loyihaviy bank krediti → eskrou-hisobvarag'ida mablag'larni jamlash → obyektning yakunlash → bank kreditini so'ndirish → qoldiq mablag'larni korxonaga o'tkazish.

1 Manba: muallif tomonidan [2; 4] asosida tuzilgan.

2 Manba: muallif tomonidan [1; 5] asosida tuzilgan.



Mazkur modelning an'anaviy kreditlashdan asosiy farqi shundaki, bank moliyalashtirishi loyiha amalga oshirilishining muayyan bosqichiga bog'lanadi. Korxonaning dastlabki 30 foizlik ishtiroki tashabbuskorning loyihaga moliyaviy manfaatdorligini va mas'uliyatini oshiradi. Bank esa loyihaning boshlang'ich bosqichi amalda bajarilganidan keyin loyihani keyingi bosqichda moliyalashtiradi.

Eskrou-hisobvarag'ining investitsiya loyihasidagi roli

2026-yil 1-yanvardan ulushli qurilishda mablag'larni jalb etish faqat eskrou-hisobvaraqlari orqali amalga oshirilishi belgilangan [1]. Eskrou-hisobvarag'i vakolatli tijorat bankida quruvchi, ulushdor va bank o'rtasidagi uch tomonlama munosabat asosida shakllantiriladi.

Bunday hisobvaraqdan foydalanishning iqtisodiy mohiyati shundaki, investorlar yoki xaridorlarning mablag'lari to'g'ridan-to'g'ri quruvchining bevosita tasarrufiga o'tmaydi. Ular maxsus hisobvaraqda saqlanadi va loyihada belgilangan shartlar bajarilgandan keyingina maqsadli ravishda ishlatiladi.

Bundan tashqari, bank tomonidan loyihaviy moliyalashtirish asosida beriladigan kreditning foiz stavkasi eskrou-hisobvarag'ida to'plangan mablag'lar miqdoriga bog'liq. Eskrou-hisobvarag'idagi mablag'lar hajmining ortishi kredit bo'yicha foiz stavkasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Qurilish yakunlangach va obyektни foydalanishga topshirishga ruxsat olingach, ushbu hisobvaraqdagi mablag'lar, birinchi navbatda, bank kreditini so'ndirishga yo'naltiriladi.

Loyihani moliyalashtirishning bunday tartibi nafaqat quruvchining moliyaviy barqarorligini, balki investor va bank manfaatlarini ham himoya qiladi. Ayniqsa, pul oqimlarini alohida hisobvaraqlar orqali boshqarish moliyaviy resurslarning boshqa maqsadlarga yo'naltirilishi xavfini kamaytiradi.

Investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar mavjudligi yetarli emas. Loyiha to'g'risidagi axborotning ochiqqligi va qurilish jarayonining muntazam nazorat qilinishi ham muhim ahamiyatga ega.

Taqdim etilgan tartibga muvofiq, quruvchi elektron platformada obyekt manzili, qavatlar va xonadonlar soni, loyiha-smeta hujjatlari, moliyalashtiruvchi tijorat banki, qurilishning boshlanish va yakunlanish muddati hamda uning amaldagi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirishi lozim. Bu investorlar va moliya institutlariga loyiha holatini kuzatish imkonini beradi.

Shu sababli zamonaviy investitsiya loyihasining moliyaviy mexanizmi uch asosiy komponentni birlashtirishi maqsadga muvofiq: moliyalashtirish → pul oqimlarini nazorat qilish → loyihaning raqamli monitoringi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligi moliyalashtirish manbasini tanlash bilan bir qatorda moliyaviy resurslarni loyiha bosqichlariga to'g'ri taqsimlash va ularning maqsadli ishlatilishini nazorat qilishga bog'liq.

O'zbekistonda joriy etilayotgan "30% o'z mablag'lari → loyihaviy bank moliyalashtirishi → eskrou-hisobvarag'i → loyiha yakunlangach kreditni so'ndirish" modeli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning an'anaviy kreditlashdan loyiha natijalari va maqsadli pul oqimlariga ko'proq bog'langan shakliga o'tish tendensiyasini ifodalaydi.

Mazkur mexanizمنى yanada takomillashtirish uchun, bizning fikrimizcha, korxonalarda:

- investitsiya loyihasining yagona moliyaviy modelini ishlab chiqish va unda o'z mablag'lari, kreditlar hamda kelgusidagi pul oqimlarini o'zaro bog'lash;
- bank kreditlarini faqat garov qiymati asosida emas, balki loyihaning kelgusidagi pul oqimlari va iqtisodiy samaradorligi asosida ajratish;
- loyihani bosqichma-bosqich moliyalashtirishni kengaytirish;
- eskrou va boshqa maxsus hisobvaraqlar orqali pul oqimlarining maqsadli harakatini nazorat qilish;
- investitsiya loyihalarining elektron monitoring tizimini banklar, investorlar va korxonalar o'rtasida integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

Natijada investitsiya loyihalarini amalga oshirishda korxona, bank va investor manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi, risklarni taqsimlovchi va mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlovchi zamonaviy loyihaviy moliyalashtirish tizimini rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PF-11-son Farmoni «Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/7353734> (murojaat sanasi: 13.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 133-son buyrug'i bilan



tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) «Asosiy vositalar»: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2024-yil 9-avgustda 3546-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/7058293> (murojaat sanasi: 13.08.2026).

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 5-avgustdagi 79-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (24-sonli BHMS) «Qarzlarni bo'yicha xarajatlar hisobi»: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 18-avgustda 1996-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/1512384> (murojaat sanasi: 13.08.2026).
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-son Qonuni «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida» // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/4664142> (murojaat sanasi: 13.08.2026).
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 27-oktabrdagi 26/10-son qarori «Bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida»: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2025-yil 11-noyabrda 3420-2-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/7835516> (murojaat sanasi: 13.08.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>